



ENVIRONMENTAL PROTECTION IN NEW UZBEKISTAN: CURRENT PROBLEMS AND WAYS TO ELIMINATE THEM

Nasiba Abdullayevna Bobojonova

Independent Researcher

Teacher at the Republican Specialized School-Boarding School of Choreography

Email: nbabadjanova346@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, sustainable development, green economy, environmental protection, environmental policy.

Received: 04.02.26

Accepted: 05.02.26

Published: 06.02.26

Abstract: This article provides a scientific analysis of environmental protection policies in New Uzbekistan, existing ecological challenges, and mechanisms for their solution. The study employs historical-analytical, statistical, and legal-regulatory methods. The results demonstrate significant reforms in environmental governance, the development of the green economy, and the implementation of large-scale programs aimed at restoring the Aral Sea region. However, issues such as industrial pollution, inefficient water resource management, and insufficient environmental awareness among the population remain pressing concerns. The article proposes the introduction of innovative technologies, the strengthening of legal frameworks, and the expansion of public participation to ensure environmental sustainability.

YANGI O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIYANI MUHOFAZA QILISH: MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Nasiba Abdullayevna Bobojonova

Mustaqil tadqiqotchi

Respublika Xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab internati o‘qituvchisi

Email: nbabadjanova346@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ekologiya, Yangi O‘zbekiston, barqaror rivojlanish, yashil O‘zbekistonda ekologiyani muhofaza qilish

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi

iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik siyosat.

sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, mavjud ekologik muammolar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy, statistik va normativ-huquqiy usullardan foydalanildi. Natijalar ekologik boshqaruv tizimining isloh qilinishi, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlarining jadallashuvi, Orolbo'yi hududini tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlar samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoat ifloslanishi, suv resurslaridan samarasiz foydalanish va ekologik madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammo sifatida aniqlanadi. Maqolada ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ТЕКУЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Насиба Абдуллаевна Бобожонова

Преподаватель

Республиканской специализированной школы-интерната хореографии

независимый исследователь

Email: nbabadjanova346@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экология, Новый Узбекистан, устойчивое развитие, зеленая экономика, охрана окружающей среды, экологическая политика.

Аннотация: В статье проводится научный анализ государственной политики по охране окружающей среды в Новом Узбекистане, существующих экологических проблем и механизмов их решения. В исследовании использованы историко-аналитический, статистический и нормативно-правовой методы. Полученные результаты свидетельствуют о реформировании системы экологического управления, развитии «зеленой экономики» и реализации программ по восстановлению Приаралья. Вместе с тем выявлены такие проблемы, как высокий уровень промышленного загрязнения, неэффективное использование водных ресурсов и недостаточный уровень экологической культуры населения. В

статье предложены меры по внедрению инновационных технологий, совершенствованию правовых механизмов и расширению общественного участия в сфере охраны окружающей среды.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Atrof-muhit muhofazasi nihoyatda muhim. Yashash uchun tabiatni asrashimiz, tabiiy resurslarni oqilona boshqarishimiz, ulardan tejamkorlik bilan foydalanishimiz zarur. Shuningdek, bugungi kunda yer sharidagi ko'plab ekotizimlar zaxirasi deyarli butkul tugab, ortga qaytarib bo'lmaydigan darajaga yuz tutgan, boz ustiga aholi nufusi o'sib borayotgan, iqtisodiy taraqqiyotga ehtiyoj kun sayin ortayotgan vaziyatda atrof-muhitni saqlash har qachongidan ham dolzarb vazifa sanaladi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, havo va tuproq ifloslanishi, shuningdek, Orol dengizi inqirozi mamlakat ekologik barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois ekologiyani muhofaza qilish nafaqat tabiiy muhitni asrash, balki aholi salomatligi va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omiliga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi [1] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-171-son Qarori [3] ekologik qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar ushbu sohada tizimli yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, yashil hududlarni kengaytirish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – Yangi O'zbekistonda ekologiyani muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan siyosatni tahlil qilish, mavjud ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal etishning samarali mexanizmlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Asosiy qism. Konstitutsiyada O'zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo'lib, ushbu

siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Ma'lumki, konstitutsiyaviy normalarning ekologik siyosatni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati beqiyos. Aynan Asosiy qonunda davlat organlari va jamoat birlashmalarining ekologik faoliyatini shakllantirish bo'yicha asosiy prinsiplari mustahkamlanadi, fuqarolarning ekologik burchlari belgilanadi, jamiyatning ekologik barqaror rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari o'rnatiladi.

Konstitutsiyaviy normalar tizimi jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasi chog'ida yuzaga keladigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tavsifidan kelib chiqib, shartli ravishda ikki qismga – umumiy va maxsus ekologik normalarga bo'linishi mumkin. Umumiy konstitutsiyaviy normalar demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplarini belgilashda, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashda, ekologik huquq-tartibotni mustahkamlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, Konstitutsiyamizning 9-bobi "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar", 10-bobi "Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari"ga bag'ishlangan bo'lib, unda davlatning fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan (shu jumladan ekologik) huquqlarini kafolatlashi belgilangan [4]. Shuningdek, Asosiy Qomusimizning beshinchi bo'limida davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy qoidalari belgilangan bo'lib, ushbu normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va shu sohadagi davlat organlarining tashkil etilishida muhim huquqiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan tashqari Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining vakolatlari ham belgilangan bo'lib, ushbu normalar mazkur organlarning ekologiya sohasidagi vakolatlarining huquqiy maqomini belgilovchi milliy qonun hujjatlarining rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

Umumiy konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, birinchidan, ularda ekologik munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan; ikkinchidan, ushbu normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga bo'lgan asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro ekologik hamkorlik juda muhim ahamiyat kasb etadi, bunda - yer yuzidagi barcha mamlakatlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv -shartnoma, konventsiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksi tushuniladi.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro doirada qo'yilgan qadamlardan birinchisi 1913 yilda Bernda (Shvetsariya) 18 ta davlat ishtirokida “Tabiatni muhofaza qilish” bo'yicha xalqaro konferentsiya o'tkazish bo'ldi. 1923 yilda esa Parijda birinchi xalqaro tabiatni muhofaza qilish kongressi bo'lib o'tdi. 1928-yilda Bryusselda (Belgiya) “Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi” ochildi. Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishga e'tibor bir muncha kuchaydi.

1945 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilishi munosabati bilan atrof-muhitni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik ushbu xalqaro tashkilot faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi. BMT xalqaro ekologik hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish yo'lida ko'p ishlarni amalga oshirdi. Dastlab 1948 yilda BMT tashabbusi bilan “Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi” “Tabiatni muhofazalash xalqaro ittifoqi” ga aylantirildi. Hozirgi kunga kelib ushbu ittifoq faoliyatida dunyoning 118 mamlakatidan 636 ta davlat va jamoat tashkilotlari ishtirok etmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda BMTning mavjud 14 ta ixtisoslashgan tashkilotidan 6 tasi atrof-muhit muhofazasiga aloqador masalalar bilan shug'ullanadi. Xususan:

YUNESKO – ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri atrof-muhit muhofazasi sohasida maorif va kadrlar tayyorlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan.

FAO - oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkilot. U yer, suv, o'simlik va hayvonlardan kompleks foydalanish, ularning unumdorligini oshirish muammolari bilan shug'ullanadi.

JST - xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti. Atrof-muhit muhofazasining sanitar-gigienik masalalari bilan shug'ullanadi.

XMT - xalqaro meteorologik tashkilot. Iqlimdagi umumsayyoraviy o'zgarishlar bilan shug'ullanadi.

DMT - dengizlar bo'yicha davlatlararo maslahat tashkiloti. Bu tashkilot dunyo dengiz va okeanlaridan foydalanishning ekologik jihatlari bilan shug'ullanadi.

Bundan tashqari BMTning ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi kengashi - EKOSOS faoliyatida ham atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e'tibor beriladi.

Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha 1985 yilgi Ozon qatlamini himoya qilish konventsiyasi (Vena), 1987 yilgi Ozon qatlamini yemiruvchi birikmalar bo'yicha protokol (Monreal), 1989 yilgi Xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish konventsiyasi (Bazel), 1992 yilgi Biologik rang-baranglikni saqlash konventsiyasi (Rio-de-Janeyro), 1992 yilgi Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konventsiya (Nyu-York) mavjud.

Tadqiqot natijalari Yangi O'zbekistonda ekologik sohada sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Eng muhim yutuqlar quyidagilardan iborat:

1. Ekologik boshqaruv tizimining isloh qilinishi

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyati kuchaytirilib, ekologik nazorat mexanizmlari takomillashtirildi. Hududlarda ekologik monitoring tizimi joriy etildi.

2. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari

Quyosh va shamol energetikasi loyihalari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Natijada atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini qisqartirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ekologiya qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi huzuridagi Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati, O'zbekiston Respublikasi IIV Yo'l Harakati Xavfsizligi boshqarmasining atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi. Atmosfera havosi muhofazasini ta'minlash bo'limi jamoat tashkilotlari va aholi bilan o'zaro aloqada bo'lib ularga metodik yordam beradi, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi inspektorlarning ishlarini birgalikda tashkil qiladi va amaliy yordam beradi [5].

3. Orolbo'yi hududini tiklash bo'yicha dasturlar

Millionlab gektar maydonda saksovul va boshqa cho'lga chidamli o'simliklar ekildi. Bu chang bo'ronlarining kamayishiga va hudud mikroiklimining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

4. Chiqindilarni boshqarish tizimi

Qattiq maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash bo'yicha yangi korxonalar tashkil etildi. Chiqindi poligonlarini boshqaruvini takomillashtirish bo'limi O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. Chiqindi poligonlarini boshqaruvini takomillashtirish bo'limi O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi "Chiqindilar to'g'risida" gi qonuni O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va qilim o'zgarishi vazirligining Nizomi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va topshiriqlari, Vazirlar Maxkamasining qaror va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining buyruq va topshiriqlari asosida ish olib boradi [6].

Biroq shunga qaramay, sanoat chiqindilarining yuqori darajasi, suv resurslaridan samarasiz foydalanish va ekologik madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Olingan natijalar Yangi O'zbekistonda ekologik siyosat izchil amalga oshirilayotganini ko'rsatadi, ammo bu jarayonda tizimli muammolar mavjud. Eng dolzarb masalalardan biri – sanoat

korxonalarining ekologik standartlarga to'liq rioya qilmasligidir. Bu holat atmosfera havosining ifloslanishiga va aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Suv tanqisligi masalasi ham strategik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish jarayoni sekin kechmoqda. Shu bois tomchilatib sug'orish tizimlarini keng joriy etish va suvdan foydalanish madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ekologik muammolarni hal etishda aholi ishtirokini kuchaytirish zarur. Ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya dasturlarini kengaytirish, ommaviy axborot vositalari orqali ekologik ongni shakllantirish samarali natija berishi mumkin.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarni rivojlantirish ham muhim yechim sifatida ko'rilmogda.

Xulosa. Yangi O'zbekistonda ekologiyani muhofaza qilish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishiga aylangan. Qabul qilinayotgan dasturlar va amalga oshirilayotgan loyihalar ijobiy natijalar bermoqda. Biroq mavjud muammolarni to'liq bartaraf etish uchun ekologik boshqaruvni yanada takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va jamiyatning ekologik madaniyatini oshirish zarur.

Kelgusida barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ekologik siyosat O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2023-yil 11-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF 158-sonli Farmoni. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 12.09.2023. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 31.05.2023. URL: <https://www.lex.uz/docs/-6479180>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-171-son Qarori. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 31.05.2023. URL: <https://www.lex.uz/docs/-6479134>
4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 01.05.2023. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
5. Atmosfera havosi va Azon qatlami. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishlari milliy qo'mitasi. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 21.01.2026. URL: https://gov.uz/oz/eco/activity_page/atmosfera-havosi-va-ozon-qatlami

6. Chiqindilar bilan ishlash. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishlari milliy qo'mitasi. Internet manbaa, Murojaat sanasi: 21.10.2025. URL: https://gov.uz/oz/eco/activity_page/chiqindilar-bilan-ishlash.